“OLIY TA’LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

mavzusida ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIK TA’LIM FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“OLIY TA’LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

mavzusida ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

2023 yil 27 may

BUXORO-2023

yana…shunday asarni yoza olgan daho bilan uni munosib qadrlagan podshogina qoladi!"

Ha, Beruniyning jon kuydirishi bejizga emasdi. Haqiqatanan "Shohnoma" dek nodir asarning aynan Sulton Mahmud G'aznaviy saltanati hududa yo'zilishi va bu asarning qaysi tilda bitilishi, turkiyda emas forsiyda bitilganligi ham hukmdor tomondan yuksak baholarga savor bo'lishi lozim edi aslida. Ammo bu so'zlarni aytishi bilan alloma hukmdorga oyna tutgandek bo'ldi go'yo!

"O'sha kunning ertasiga sulton Mahmud G'aznaviyning yangi farmoni oliysiga ko'ra" Shohnoma "asarining har bir satriga bir tilla to'lanadigan bo'ldi.

Ammo bu tillo tangalar o'zining munosib egasiga nasib etmadi.

O'sha kuni butun G'azna shahri gadolari-Abulqosim Firdavsiy sadaqa qilgan kumush tangalardan, she'riyat muxlislari esa, shoiri zamonning" Shohnoma" asaridan qolishmaydigan yangi shoh asari- "Sulton Mahmud hajvi" dan behad xursand edilar. Nafaqat yaxshi gapning gadolari-yu she'riyat muxlislari, butun saltanat ahli ham xursand-baxtiyor edi.

O'ttiz yil mobaynida jon olib-jon berib qilgan jamiki toat-ibodatimni o'tdek kuydirib, to qiyomatga qadar kelgusi avlodlar oldida yuzimni qora qilmagaysan O'zing! Tavba qildim O'zinga, Tavba!

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T., "Yangi asr avlodi", 2006. 16-17-b.b.
2. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy – estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T., "O'qituvchi", 2012. 11-bet.
3. Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba uyi, 2006. 5-bet.
4. R. SHamsutdinov, SH. Karimov. Vatan tarixi.196-b.
5. "Sharq yulduzi" jurnali, 2009. 2-son, 55- b.

BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

M.B. Qambarov

BuxDU "Pedagogika" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Mustaqil yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini samarali tashkil etish, ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, bo'lajak mutaxassislarning o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishish dolzarb muhim muammo sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'qitishni faollashtirishning texnik va axborot vositalarini qo'llash, ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan qator vazifalar shular jumlasidandir.

Bugungi kun zamonaviy pedagogikasining asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo'nalishlari (ijtimoiy, shaxsiy, siyosiy va boshqalari)da samarali rivojlanish tizimlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bu yo'nalishlarga quyidagi yo'nalishlar asos sifatida kiritilishi mumkin:

- ta'limiy va tarbiyaviy tizimlarni integratsiyalash sohasiga doir qonuniyatlarni aniqlash va o'rganish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni amalda joriy etish;
- ta'lim va tarbiya tizimining istiqboldagi rivojlanishini tashxis qilish;
- ta'lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish;
- xalqaro pedagogik loyihalar, baholash dasturlarida ishtirok etish, professional sohaga oid muntazam axborotlar almashish, pedagogik yo'nalishga doir xalqaro tajribalarni o'rganish;
- pedagogik tadqiqotning samarali natijalarini aniqlash va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish.

Pedagogikada ta'limiy va tarbiyaviy tizimlarni integratsiyalash sohasiga doir qonuniyatlarni aniqlash va o'rganish murakkab uzluksiz jarayon sifatida e'tirof etiladi. Bu maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktab tizimidan boshlanadi va professional hamda oliy ta'lim muassasalarida davom ettiriladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni amalda joriy etish bo'lajak mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorashning muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Chunki o'z ustuda ishlamagan, nazariy bilimlarini amaliyotga joriy etmagan inson hayotda o'z-o'zini rivojlantira olmaydi va o'z sohasining yetuk mutaxassisiga aylanmaydi.

Ta'lim va tarbiya tizimining istiqboldagi rivojlanishini tashxis qilish asosida pedagogikadagi mavjud retrospektiv holat va prospektiv rivojlantiruvchi jarayonni tashkil etish vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish asosida har bir pedagog o'z maktabini yaratishning aniq maqsad va vazifalarini ishlab chiqish strategiyalarini belgilaydi.

Xalqaro pedagogik loyihalar, baholash dasturlarida ishtirok etish, professional sohaga oid muntazam axborotlar almashish, pedagogik yo'nalishga doir xalqaro tajribalarni o'rganish jarayoni ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida doimiy sifat va samaradorlikka erishish hamda mavjud bilimlar zahirasini yangiliklar bilan yanada kehgaytirishning muhim yo'nalishlarini aniqlab beradi.

Pedagogik tadqiqotning samarali natijalarini aniqlash va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish asosida samarali imkoniyatlarni qo'lga kiritishning asosiy omillari qo'llaniladi va tajriba davomida kamchiliklar aniqlanib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari tizimlashtiriladi. Shu maqsadda olib borilgan pedagogik natijalar amaliyoti shakllantiriladi. Ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya va ko'rsatmalardan bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni o'z kasbiy faoliyatiga tayyorlashning pedagogik trayektoriyasini tuzish maqsadida foydalanish ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aslanova N.X. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida kompleks yondashishning afzalliklari // Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Tezislar to'plami I-qism. Buxoro. 2016 y, B 76-77
2. Qambarov M.B. Ma'naviy kamolot siri. TIL, ADABIYOT, TARJIMA, ADABIY TANQIDCHILIK: ZAMONAVIY YoNDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Buxoro, 2022 y, 15-aprel, B 14.
3. Маджидова М. Х., Самиева Ш. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания //Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск). – 2020. – №. 1. – С. 803-805.

YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI

Feruza Fatulloyevna Narzulloyeva
Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi erkin tadqiqotchisi

Har bir insonda – katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar – ijodiy fikrlash qobiliyati bor. Biroq, ko'pchiligimiz ijodiy fikrlashga ega bo'lsak-da, ko'pincha uni harakatsiz qoldirib ketamiz. Shaxs o‘z ijodiy izlanishlari asosida ham dunyoni o‘zgartiradi, ham o‘zini ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon qiladi. Ya'ni inson o‘z oldiga xilma-xil muammolarni qo‘yadi va hal qiladi, ularning o‘ziga xos yechimlarini topadi. Ba'zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlarni, usullarni qo‘llaydi. Ayni shu ma'noda, ijodkor shaxs deganda, yuksak qobiliyat va iqtidorga ega, hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrok, haqiqat va yaxshilik birligi, oliy haqiqat, adolat va rostgo‘ylik mushtarakligi, insoniylik, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holati, qadriyatlarni qadrlash, o‘zgacha his-tuyg‘ularning hayotga singib ketishi, har qanday narsa va hodisaga yangicha nuqtai nazar, aql ko‘zi bilan qarash tushuniladi. Iste'dod, iqtidor egalarini shakllantirsa bo‘ladi, lekin daholikni emas.

Buyuklik o‘z-o‘zini yaratadi va namoyon etadi, buyuklar hayotdan qoniqmaslik ruhi bilan yashaydi. Ular har qanday tushkun vaziyatda ham ruhan cho‘kmaydilar. Izlanish, ijod, xayol, aqlni charxlash ularga huzur va halovat berib ruhlantiradi. Ba'zi daholarni o‘z davrida anglab yetmaydilar. O'sha davrda uni tushunish uchun odamlar tayyor bo‘lmaydilar. Shleyermaxerning fikricha: "dahoni tushunish – dahoning ijodiy faoliyatini takroran boshidan o‘tkazishdan iborat bo‘lishi kerak. Hatto dahoning o‘zi nimani, qanday qilib yozganligini oxirigacha anglay olmasligi mumkin, lekin talqinchi asarni muallifdan ko‘ra yaxshiroq tushunishi lozim. Tabiatni tushunamiz, insonni esa doim ham anglay olmaymiz, ayniqsa daholarning hamrohi xayolparastlik bo‘lgan.

Ijodkorlik - bu yangi foydali g'oyalarni taklif qilish demakdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat

M.B. Qambarov. BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI……..……..105

F.F. Narzulloyeva. YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI.....107

M.Yo.Umarova. XALQ QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI……109

M.Yo.Umarova. F.F. Raximova. TASAVVUF TA'LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI…….133

B.B. Xodjiyev. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK NAZOKATI VA AXLOQINING IJODIY KO'RINISHI…….…….118

A.T. Gulboyev. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI O'TKAZISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH……121

H.R. Hasanov, A.B. Barotboyev MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH…….124

M.N. Amonov. TALABALARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA…….126

Q.F. Abdullayev. ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ……..128

4-ShO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYaVIY IShLAR TA'SIRChANLIGINI OShIRISh MEXANIZIMLARI……132

M.O. Ochilova. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH…….132

G.G. Xabibova. TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH.....134

G.G. Xabibova, M.E. Mirzayeva. TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ODATLARINI TARBIYALASH VAZIFALARI……139

M.N. Usmanova. ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOIY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI……..142

N.F. Mexmonova. YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI…….146

Yu.Z. Saidova. YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR…….148

Sh.K.O'rinov. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI……150

O.R. Ortiqov. MA'NAVIY ISLOHOTLAR OLIY TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYALASH MANBAI.154